

**AJDODLAR MEROSINI - HARBIY XIZMATCHI VA XIZMATCHILARNING
KOMPETENSIYALARINI SHAKILLANTIRILISHIDA VATANPARVARLIKNING
BOSH MEZONI SIFATIDA O'RGANILISHI**

Sultonov Ulug`bek

Favqulodda vaziyatlar vazirligi Akademiyasi 5-bosqich
kursanti

L.To'rayev

O'zbekiston Respublikasi FVV Akademiyasi
G va IIF kafedrasida o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10925766>

Annotatsiya. Ushbu maqola orqali bilamizki o'tmishsiz kelajakni barpo etish mumkin bo'lmasligi, bu esa ajdodlar qoldirgan ilmiy merosini o'rganilishi birga milliy iftixorni yoshlar ongida aks etishdan iborat.

Kalit so'zlar: Amir Temur, vatanparvarlik, kompetensiya, diplomatiya, milliy meros, harbiy xizmatchi va xizmatchilar.

**STUDYING THE LEGACY OF ANCESTORS AS THE MAIN CRITERION OF
PATRIOTISM IN SHAPING THE COMPETENCIES OF MILITARY SERVICEMEN
AND SERVICEMEN**

Abstract. Through this article, we know that it is impossible to build the future without the past, and this study of the scientific heritage left by the ancestors is to reflect the national pride in the minds of young people.

Key words: Amir Temur, patriotism, competence, diplomacy, national heritage, military servicemen and servicemen.

**ИЗУЧЕНИЕ НАСЛЕДИЯ ПРЕДКОВ КАК ОСНОВНОГО КРИТЕРИЯ
ПАТРИОТИЗМА В ФОРМИРОВАНИИ КОМПЕТЕНЦИЙ ВОЕННОСЛУЖАЩИХ
И ВОЕННОСЛУЖАЩИХ**

Аннотация. Благодаря этой статье мы знаем, что невозможно построить будущее без прошлого, и данное изучение научного наследия, оставленного предками, призвано отразить национальную гордость в сознании молодежи.

Ключевые слова: Амир Темур, патриотизм, компетентность, дипломатия, национальное наследие, военнослужащие и военнослужащие.

Barchamizga ma'lumki Markaziy Osiyo uzoq ming yillik tarixi davomida avlodlarga ajdodlarimiz tomonidan vatanparvarlik, xalqparvarlik kabi fazilatlarni singdirilishiga alohida e'tibor qaratilib kelingan. Bunga Amir Temur, Jaloliddin Manguberdi, Temur Malik, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi ajdodlarimizni yaqqol misol qilib olsak mubolag'a bo'lmaydi. Nega deganda davlatimiz rahbarining 2022-2026 yillarda milliy rivojlanish yo'lida ortirilgan tajribalarga asoslanib "Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi dasturi" da muhim vazifalarni ta'kidlab o'tdilar. Mazkur taraqqiyot strategiyasida sifatli ta'lim-tarbiya masalasiga va milliy qadriyatlarga nisbatan yoshlarni hurmat e'tiborini oshirish kerakligi ta'kidlanadi.

Azal-azaldan ma'lum o'zbek xalqi tarixiga, madaniy merosiga hurmat-bu; uning yaratuvchilariga, rivojlantiruvchilariga va davomchilariga izzatikrom, mehr-oqibatli hisblanib

kelgan. O'tmishdoshlarimizga biz qanday munosabatda bo'lsak, farzandlarimizdan bizga shunday javob qaytishligini talabalarimizga tushuntirish masalaning muhim jihatlaridan biri sifatida qaraymiz. O'tmishimizni qanchalik yaxshi bilsak va e'zozlasak, hozirgi davrni, mustaqillikning istiqbolini shunchalik chuqur anglaymiz. Asosaiysi mustaqillik tufayli xalqimizning madaniy-ma'naviy taraqqiyotiga keng yo'l ochildi. Hozirda milliy meros mohiyatini anglashgina emas, shu bilan birga uni rivojlantirish uchun imkoniyatlar yaratildi. Juda ko'plab ilmiy, badiiy, tarixiy, falsafiy asarlar, qadimiy qo'lyozmalar ketma-ket qayta nashr qilinmoqda. Noyob tarixiy yodgorliklarni saqlash va ta'mirlash ishlari boshlangan.

Buyuk allomalar tomonidan yaratilgan va har xil sabablar bilan respublikadan tashqariga tashib ketilgan, milliy boylik, o'zbek xalqining milliy iftixori bo'lgan san'at asarlarini bugungi kun harbiy xizmatchi va xizmatchilarning kompetensiyalarini shakllantirilishida muhim alohida ahamiyat kasb etadi.

Amir Temur eng muhimi, Eron, Ozarbayjon va Iroqdagi mayda hukmdorlar o'rtasidagi tarqoqlik va boshboshdoqlikka barham berib, bu bilan nafaqat Movarounnahr, balki uzoq va yaqin Sharq mamlakatlarining iqtisodiy va madaniy taraqqiyotiga, xalqlar va mamlakatlarni bir-biri bilan yaqinlashtirishga ulkan hissa qo'shdi. Amir Temur Yevropaning Fransiya, Angliya va Kastiliya kabi yirik qirolliklari bilan bevosita savdo va diplomatik aloqalar o'rnatdi. Tarixshunos S.R.Moralez "The Diplomat in Spain" gazetasining internet saytida chiqargan maqolasida quyidagilarni bayon qilgan:

"O'zbek diplomatiyasi haqiqatdan chuqur tarixiy ildizga ega. Ayniqsa, Sohibqiron Amir Temur davriga kelib, Yevropa davlatlari bilan hamkorlik aloqalari yanada rivojlana bordi. O'zbek xalqi bu yil Amir Temur tavalludining 679-yilini nishonlamoqda. Temur kabi sohibqironning tug'ilishi nafaqat o'sha zaminda, balki butun Yevropa va Osiyo davlatlarining siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy hayotida tub burilish sodir etdi" ⁽¹⁾.

Amir Temur umrining ko'p qismini jangu jadallarda o'tkazdi. Yangi hududlarni egallagan va o'lkalarni dushman tasarrufidan ozod qilganda, shu yerlarni obod qildi, shu bilan bir qatorda, dastavval kuch ishlatmasdan sulh tuzish yo'li bilan chora ko'rdi. Bu uning diplomatiyasidagi o'ziga xos xususiyat hisoblanadi. Nizolarni kuch ishlatmasdan hal qilish hozirgi zamon diplomatik munosabatlarining asosiy tamoyili hamdir. Islom Karimov ham "elchilarning yutug'i urushni boshlamasidan turib uni yutishda" deb aytgan so'zlari Amir Temurning diplomatik hislatini namoyon qiladi.⁽²⁾Shu bilan bir qatorda, Amir Temur o'zining "Tuzuklari"da "qaysi ishni chora-yu tadbir bilan bitirishning iloji bo'lsa, unda qilich ishlatmadim" degan so'zlari fikrimiz dalilidir.⁽³⁾

1. ¹ Moralez S.R. Ruy González de Clavijo, un madrileño en el reino del Gran Tamerlán. "The Diplomats in Spain" gazetasining internet sayti, 2015. Veb: <http://thediplomatinspain.com/ruy-gonzalez-de-clavijo-un-madrileno-en-el-reino-delgran-tamerlan/>

2. ²Karimov I.A. Ona yurtimiz baxtu iqboli va kelajagi yo'lida xizmat – eng oliy saodatdir. – T: O'zbekiston, 2015. 300-301-betlar.

3. A. Sog'uniy, H. Karomatov. Temur Tuzuklari. Forschadan tarjima. – T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa birlashmasi, 1991.

Bundan tashqari, qaysi mamlakatni zabt etgan bo'lsa, ularning odamlariga katta ehtirom ko'rsatdi va ular uchun katta imkoniyatlar yaratib berdi. U o'z "Tuzuklari" da shunday deb yozadi: "Qaysi mamlakatni zabt etgan bo'lsam, o'sha yerning obro'e'tiborlik kishilarini aziz tutdim, sayidlari, ulamolari, fuzalo va mashoyihlariga ta'zim bajo keltirdim va hurmatladim, ularga suyurg'ol vazifalar in'om etib, maoshlarini belgiladim, o'sha viloyatning ulug'larini bo'lsa, o'z farzandlarimdek ko'rdim. Mazkur mamlakatlarning sipohlari uchun dargohim eshigi ochiq edi. Hammani qo'rquv va umid orasida saqladim".⁽⁴⁾

O'zbek xalqiga avlod-ajdodlardan buyuk an'ana, milliy meros bo'lib o'tib kelayotgan ilm-fanga o'chlik, madaniyatga talpinish, odob-axloq qoidalarini chuqur o'zlashtirib hayotga tatbiq etishga intilish, bilimni oshirish, tafakkurini o'stirib borish kabi xislatlar – millatning faxri, iftixoridir. Bu esa turli mavzudagi ajdodlar tarixini o'rganish hozirgi kun harbiy xizmatchi va xizmatchilar uchun kompetensiyalarni shakllantirishida balki yosh avlodning kimning avlodidan ekanligini bilish ibrat, faxrifiyor namunasi bo'lib xizmat qiladi. Kompetensiyaga ega bo'lish shunchaki bilim, ko'nikmalarni egallab olishnigina anglatmasdan kishining shu bilimlarni hayotda aniq maqsadlar asosida qo'llay olishini bildiradi.

Milliy istiqlol g'oyasini, sharqona tarbiyani shakllantirish; shaxsni ma'naviy boyitishdan iborat. Tarixni o'rganish orqali kelajakda vatanparvar kadri tayyorlash ko'zda tutilgan.

Bu jarayonda harbiy xizmatchilar va xizmatchilarda kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan holda ta'lim berish o'zining kutilgan samarasini beradi. Masalan, maqsadi Vatanni himoya qilish uchun tayyorlikni ta'minlaydigan fikr, ishonchini, dunyoqarashni shakllantirish, unga bor kuchni, kerak bo'lsa hayotini ham berish. Bo'lajak jangchilarning ma'naviy-ruhiy, axloqiy-intizomiy, jangovar xislatlarini tarbiyalashdan iborat. Shuningdek, o'zbek xalqining madaniy merosi hisoblangan san'at, tarixiy va me'morchilik yodgorliklarini asrab-avaylash, ularning tarixi hamda bugungi kundagi ahamiyatini bilish talab etiladi. Zero, bir necha asrlar davomida yaratilgan obidalarimiz - machit, madrasa, saroy, observatoriya, qasrlar, osmono'par minoralar, maqbaralar, boy, qo'hna va navqiron tariximiz, Samarqand, Buxoro, Xiva, Toshkent, Turkiston yodgorliklari kimlarni hayratga solmagan deysiz. Ular yoshlar qalbida ham o'tmish tariximizga, ajdodlarimizning yuksak ilm va kasb mahoratiga cheksiz hurmat, ular bilan faxrlanish tuyg'usini uyg'otadi. millatiga, ona-Vataniga, imoniga sodiq bo'lishni o'rgatishi, ularda sog'lom kuch, tafakkur, imon va pok vijdonni shakllantirish, Vatan oldidagi mas'uliyat, millat manfaatini bilan yashash, Vatan taraqqiyoti, millat obro'siga hissa ko'shish, foyda keltirish, fidoyilik va halollik bilan sidqidildan mehnat qilish, xalqning shon-shuhratini, manfaatini o'ylash, insonparvar bo'lishiga da'vat etishning turli usul va vositalarini ham topishga harakat qilgandagina yoshlarda vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirishga keng imkoniyatlarga ega bo'ladi. Harbiy xizmatchilar va xizmatchilarda kompetensiyalarini shakllantirish uchun yangi kasbiy tayyorgarlik texnologiyasining barcha ko'rinishlaridan foydalanish, uning yangi-yangi shakllarini izlab topish va yaratish, eng avvalo, harbiy xizmatchilar va xizmatchilarni mustaqil fikrlashga, ijodkorlikka o'rgatish, ularning tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash, rag'batlantirish va yanada rivojlantirilishi kerak deb o'ylayman. Harbiy xizmatchilar va xizmatchilarda *tarixni o'rganish jarayonida*

4. A. Sog'uniy, H. Karomatov. Temur Tuzuklari. Forschadan tarjima. – T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa birlashmasi, 1991.

ijtimoiy rivojlanish qonuniyatlarining boshlang'ich tushuncha va dunyoqarishi shakllanadi, harbiy xizmatchilar va xizmatchilarda ijtimoiy rivojlanishning shart sharoitlari, iqtisodiy to'zumning rivojlanishi, jang xususiyatlari va harbiy xizmatning rivojlanishi hamda ushbu faoliyat bilan bog'liqligi haqida dastlabki bilimlarni shakllantiradi.

Tarix fan dasturi harbiy xizmatchilar va xizmatchilarda harbiy xavf-xatar davrimiz haqiqati ekanligi haqidagi ilk bilimlar bilan qurollantiradi.

"Bizni o'rab turgan notinch dunyoda do'stlar hamda O'zbekistonni o'z ta'siri sohasiga jalb qilmoqchi bo'lganlar yetarli. Bunda ular barcha ommabop, Shu qatorda harbiy bo'lgan uslublarni qo'llashi mumkin, Shuning uchun biz harakatchan, Yaxshi o'rganilgan va jihozlangan, chegaramiz, mustaqilligimiz himoyasini ta'min qila oladigan armiyaga ega bo'lishimiz kerak" deb ta'kidlagan edi O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimov. Tarix darslarida butun dunyoda tinchlikni saqlash, barcha mamlakatlar bilan do'stona munosabatlar o'rnatish, davlatimiz tashqi siyosati mohiyati va xususiyatini ochib berishdagi O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimovning o'rni kattaligini ko'rsatib o'tish maqsadga muvofiq.

Harbiy xizmatchilar va xizmatchilarda tarixiy materialni tahlil qilish va umumlashtirishga o'rganishlari, alohida voqea va dalillar mohiyati va ahamiyatini aniqlashlari, o'tish va hozirgi ijtimoiy holatlarni taqqoslash va baholash uchun nazariy bilimlarni tadbiq qilishlari kerak.

Harbiy xizmatchilar va xizmatchilarda tarixiy jarayonga aloqadorlik hissiyotini uyg'otish, atrofda sodir bo'layotgan voqealarga mas'uliyat sezish katta o'rin tutadi. Buning uchun esa ta'lim jarayonida nafaqat o'tmishdagi buyuk kishilar, balki vatanimiz oddiy mehnatkashlari hamda uning himoyachilari hayoti va faoliyatini ochib berish zurrur.

REFERENCES

1. Moralez S.R. Ruy González de Clavijo, un madrileño en el reino del Gran Tamerlán. "The Diplomats in Spain" gazetasining internet sayti, 2015. Veb: <http://thediplomatinspain.com/ruy-gonzalez-de-clavijo-un-madrileno-en-el-reino-delgran-tamerlan/>
2. Karimov I.A. Ona yurtimiz baxtu iqboli va kelajagi yo'lida xizmat – eng oliy saodatdir. – T: O'zbekiston, 2015. 300-301-betlar.
3. A. Sog'uniy, H. Karomatov. Temur Tuzuklari. Forschadan tarjima. – T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa birlashmasi, 1991.
4. A. Sog'uniy, H. Karomatov. Temur Tuzuklari. Forschadan tarjima. – T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa birlashmasi, 1991.
5. [www. Ziyo.net](http://www.Ziyo.net)
6. www.wikipediya.uz